

## **MUSTAQIL ISH JARAYONIDA INTERFAOL TA'LIM METODLARI ORQALI TALABALARNING DIDAKTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH**

***Abdullayeva Gulnoz Yusuf qizi***

*Navoiy Davlat Universiteti*

*San'at va sport fakulteti*

*Pedagogika nazariyasi va tarixi yunalishi*

*1-kurs magistranti*

**Annotatsiya** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarining didaktik kompetensiyalarini shakllantirishda interfaol o'qitish metodlarining ahamiyati yoritilgan. Interfaol metodlarning mohiyati, ularning talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi roli hamda mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonidagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida og'zaki, yozma, grafik va amaliy mustaqil topshiriqlar orqali talabalarining o'quv faoliyatini faollashtirish, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, bosqichma-bosqich yondashuv asosida didaktik kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari ochib berilgan. Maqola natijalari interfaol metodlar va mustaqil ishlarni uyg'unlashtirish talabalarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar, didaktik kompetensiya, mustaqil ish, mustaqil fikrlash, ta'lim samaradorligi, kasbiy tayyorgarlik, oliy ta'lim, o'quv jarayoni.

**Аннотация.** В данной статье раскрывается значение интерактивных методов обучения в формировании дидактических компетенций студентов высших образовательных учреждений. С научно-теоретической точки зрения проанализированы сущность интерактивных методов, их роль в развитии самостоятельного мышления студентов, а также место самостоятельной работы в учебном процессе. В ходе исследования обоснованы возможности активизации

учебной деятельности студентов и формирования умений применять усвоенные теоретические знания на практике посредством устных, письменных, графических и практических самостоятельных заданий. Также раскрыты механизмы развития дидактических компетенций на основе поэтапного подхода. Результаты исследования показывают, что интеграция интерактивных методов и самостоятельной работы способствует повышению качества профессиональной подготовки студентов.

**Ключевые слова:** интерактивные методы, дидактическая компетенция, самостоятельная работа, самостоятельное мышление, эффективность обучения, профессиональная подготовка, высшее образование, учебный процесс.

**Abstract.** This article highlights the importance of interactive teaching methods in the formation of didactic competencies of students in higher education institutions. The essence of interactive methods, their role in developing students' independent thinking, and their place in organising independent learning activities are analysed from a scientific and theoretical perspective. The study substantiates the possibilities of activating students' learning activities and forming skills to apply acquired theoretical knowledge in practice through oral, written, graphical and practical independent tasks. In addition, the mechanisms for developing didactic competencies based on a step-by-step approach are revealed. The results of the study demonstrate that the integration of interactive methods and independent work contributes to improving the quality of students' professional training.

**Key words:** interactive methods, didactic competence, independent work, independent thinking, educational effectiveness, professional training, higher education, learning process.

**Annotation:** This article analyses the pedagogical and psychological conditions for using blended teaching technology in the individualisation of the educational process. The advantages of individual and personalised teaching, their impact on the effectiveness of learning, as well as the pedagogical and psychological foundations of modern innovative teaching approaches and the use of multimedia and interactive tools are discussed. The

article also presents recommendations from scholars and educators for developing students' individual abilities.

**Key words:** individual education, personalised teaching, differentiated education, educational trajectory, personal plan, pedagogical and psychological conditions.

**Kirish.** Jahon tajribalariga asoslanib, qator rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlarida professional ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalashni amalga oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan metodik tizimlar ishlab chiqilgan hamda muhim amaliy natijalarga erishilgan. Shu bois, malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida amalda qo'llanilayotgan an'anaviy ta'lim yondashuvlarini tubdan takomillashtirish, shuningdek, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustaqil faoliyat orqali amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda zamonaviy talablar asosida ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar natijasida professional ta'lim tizimini joriy etish orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyat yo'nalishlari qamrovi kengayib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan "mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifasining ijrosini ta'minlash maqsadida texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning didaktik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini interfaol o'qitish metodlari asosida yanada jadallashtirish zarurati yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mazkur holat oliy ta'lim muassasalari talabalarida mustaqil ish jarayonida didaktik kompetensiyalarni shakllantirishning amaldagi metodik tizimini va o'quv-uslubiy ta'minotini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ish jarayonida didaktik kompetensiyasini takomillashtirishda ularning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammolarga yechim topish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishda o'qitishning interfaol metodlaridan foydalanish ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustaqil faoliyat orqali

amaliyotda qo'llay olishni rivojlantiruvchi, mustaqil faoliyat jarayonida kasbiy muammolarni aniqlash va ularni hal etishda interfaol metodlardan foydalana oluvchi, oliy ta'lim muassasalarida faol ijodiy fikrlovchi, izlanishga moyil, zarur axborotlarni mustaqil izlab topuvchi hamda ularni o'z kasbiy faoliyatida qo'llay oladigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

**Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.** Oliy ta'lim muassasalarida "kompetensiya", "kompetentlik" va "tayanch kompetensiyalar" tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganish, ularni shakllantirish, rivojlantirish va tashxislash, shuningdek, mustaqil ishlarni tashkil etish masalalari bo'yicha respublikamiz olimlaridan O.A.Qo'ysinov, MDH va xorijiy mamlakatlar olimlaridan I.A.Zimnyaya, R.Berger va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan hamda ularning ilmiy qarashlari ta'lim nazariyasi va amaliyotida keng rivojlantirilgan.

O.A.Qo'ysinovning ta'kidlashicha, mustaqil ta'lim olish maqsadini belgilash hamda uning asosida talabalarda mustaqil bilim olish, mustaqil ishlash, ijodkorlik, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirish umumiy kasbiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

N.A.Muslimovning fikricha, "mustaqil ta'lim — bilimlarni o'zlashtirish, tasavvurlarni rivojlantirish, tushuncha, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining subyektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatini tashkil etishdir".

R.X.Djuraev va L.V.Golishlarning qayd etishicha, mustaqil ta'lim — bu shaxsning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayonidir. Ushbu jarayonda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi.

Interfaol metod ("inter" – o'zaro, "act" – harakat qilmoq) tushunchalaridan kelib chiqib, o'zaro harakat qilish, hamkorlik qilish va hamkorlik mulohot tartibida bo'lishni anglatadi. Interfaol metodlar deganda, ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida talaba bo'lgan metodlar tushuniladi.

Bu metodlar qo'llanilganda, o'qituvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi, va ta'lim oluvchi butun jarayon davomida faol ishtirok etadi.

Talaba markazida bo'lgan yondashuvning asosiy foydali jihatlari quyidagilardan iborat:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish- o'rganish jarayoni;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirgan bilim va ko'nikmalarning e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini talabaning ehtiyojiga muvofiqlashtirish;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganish;
- ikki tomonlama fikr-mulohazalar almashish imkoniyatining yaratilishi.

Interfaol o'qitish usullari talabalar o'rtasida, o'qituvchi bilan, turli dialoglar, ishbilarmon va rol o'yinlari orqali turli axborot manbalari bilan faol va samarali hamkorlikni, shuningdek, yangi ijtimoiy va professional tajribani egallashni ta'minlashga qaratilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol o'qitishning metodik xususiyatlari boshqa o'qitish usullaridan quyidagi jihatlar bilan farq qiladi:

- faoliyatning guruhiiy tarkibi va talabalarni guruh ichida o'quv va kasbiy vazifalarni hal qilishda o'zaro mulohotga jalb qilish;
- "talaba–talaba", "talaba–o'qituvchi", "talaba–kompyuter", "talaba–kitob" o'zaro aloqalarining konstruktiv va teng huquqli bo'lishiga yo'naltirilgan;
- turli madaniy matnlar (diagramma, grafik, formulalar, vazifa, ilmiy va badiiy matnlar, internet manbalari va boshqalar) bilan ishlashga qaratilgan;
- o'zaro hamkorlikning faol ishtirokchilarini belgilash;
- natija olish uchun konstruktiv mahsulotlar va guruhlarining o'z-o'zini boshqarishini ta'minlashga qaratilgan;
- interfaol o'qitishning gumanitar tabiati, kommunikativ vaziyatlarni yaratish, muhim kasbiy muammolarni hal qilish, ko'p kasbiy pozitsiyalarni anglash va qabul qilish, shuningdek, guruhli va individual refleksiya jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Mustaqil fikrlashni shakllantirish. Har qanday o‘quv fanidagi darsliklarning asosiy didaktik elementi matnlar, savol-topshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalardir. Talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatishda darslik, o‘quv qo‘llanmalari va o‘qituvchining alohida ahamiyati emas, balki mavzudagi ilg‘or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar yoki voqea-hodisaga talabaning o‘z munosabatini bildirishi ustuvor bo‘lishi lozim.

Muayyan fan bo‘yicha talabaning mustaqil fikrlashini shakllantirishda darslikda yoki o‘qituvchi tomonidan berilgan savol-topshiriqlar talabaning matn mazmunini shunchaki takrorlashga yoki yodlashga majburlamasligi kerak. Shu bois, mustaqil ta‘lim — bu olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘shimcha ma‘lumotlarni mustaqil o‘rganish uchun tashkil etilgan o‘quv shaklidir.

Talabalar uchun barcha zarur shart-sharoitlar – o‘quv materiallari, kompyuter texnikasi, avtomatlashtirilgan dasturlar mavjud bo‘lsa-da, ulardan samarali foydalanish va ta‘lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish o‘qituvchining vazifasidir. Shu bilan birga, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ahamiyati doimo muhim hisoblanadi.

Mustaqil ishni tashkil etish. Talabalarga fanlar bo‘yicha zarur uslubiy ko‘rsatmalar, tavsiyalar va turli shakldagi mustaqil ish topshiriqlari ishlab chiqilgan. Ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

Og‘zaki mustaqil topshiriqlar: darslik bo‘yicha materialni o‘rganish va takrorlash; chizmalar va sxemalarni tahlil qilish; turli texnik adabiyotlar, hujjatlar va materiallar asosida o‘qituvchi savollariga javob tayyorlash; ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish.

Didaktik kompetensiyani shakllantiruvchi mustaqil topshiriqlar: o‘quv materialining mazmuni va mohiyatini yorituvchi axborot va didaktik materiallarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Yozma mustaqil topshiriqlar: hisoblash topshiriqlarini bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to‘ldirish; texnologik xaritalar, laboratoriya va amaliy ishlar bo‘yicha hisobotlar tayyorlash.

Grafik mustaqil topshiriqlar: chizma va eskizlar tayyorlash; detal va tugunlarni chizish; sxema, grafik, diagrammalarni tuzish; kuzatuv natijalarini tasvirlash.

Amaliy topshiriqlar: berilgan topshiriqlar asosida detallar tayyorlash, tugun va mexanizmlarni yig'ish; texnik jarayonlarni ishlab chiqish; asbob-uskuna tanlash, ish rejalarini belgilash; yangi moslamalarni loyihalash, maket va modellarda ish olib borish.

Talabalarning didaktik kompetensiyalarini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda o'qituvchi taklif etilgan strategiya va metodlar orqali talabalarga ma'lum bir o'quv vazifasini bajarishni ko'rsatadi. Talabalar ko'rsatmalar va yo'riqnomalarga rioya qilgan holda, o'qituvchi tomonidan belgilangan namunaga muvofiq ketma-ket vazifalarni bajaradilar.

Ushbu bosqichda asosiy yo'l – birgalikdagi faoliyat bo'lib, tashqi harakatlar orqali amalga oshiriladi. Tashqi harakatlar maksimal darajada shakllantiriladi va keyinchalik qisqartiriladi. Talabalar ovoz chiqarib fikr bildiradi, bajarilgan ishlarni sharhlab chiqadi. Keyingi bosqichlarda ular topshiriqni mustaqil ravishda, individual, juft yoki guruh shaklida bajarishga o'rgatiladi.

### **Xulosa.**

Nazariy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida talabalarining didaktik kompetensiyalarini shakllantirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol o'qitish metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlar talabalarining faol ishtirokini rag'batlantiradi, ularni o'zaro hamkorlik va konstruktiv fikr almashishga yo'naltiradi hamda o'qitish jarayonini markazlashtirish orqali o'quv samaradorligini oshiradi.

Mustaqil ish orqali talabalar o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, muammolarni hal qilish va kasbiy vazifalarni bajarishda mustaqil harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ular turli shakldagi mustaqil topshiriqlar – og'zaki, yozma, grafik va amaliy – orqali o'z bilimlarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, bosqichma-bosqich yondashuv va tashqi harakatlarni amaliyotda qo'llash talabalarda diqqat, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, interfaol metodlarni samarali qo'llash va mustaqil ishni tizimli tashkil etish oliy ta'lim muassasalarida talabalarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish,

ularni ijodiy, izlanuvchan va o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan mutaxassislar sifatida shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil, 13-fevral, 6-son, 70-modda.
2. Qo‘ysinov O.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – T.: “DELTA PRINT SERVIS” nashriyoti, 2018. – 156 b.
3. Zimnyaya I.A. Klyuchevaya kompetentnostnaya paradigma rezul’tata obrazovaniya // “Vysshee obrazovanie segodnya” jurnali. 2003. – №5. –B. 34–42.
4. Berger R. Interpersonal communication: theoretical perspectives, future prospects. Journal of Communication, 2005. – №55, p. 415–447.
5. Ximmataliev D.O., Muqimov B.R. Ta’limda axborot texnologiyalari fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish. Uslubiy ko‘rsatma. – T.: TIMI, 2015. – 90 b.
6. Qo‘ysinov O.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar // “Kasb-hunar ta’limi” jurnali. – T., 2007. – №2. – B. 9–10.
7. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tizimli yondashuvni amalga oshirishga muammoli vaziyatlar. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2007. – 54 b.
8. Djuraev R.X. va boshqalar. Integratsiyalashgan ta’lim nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Sano-standart”, 2009. – 176 b.
9. Golish L.V. Kasb-hunar kollejlarda modulli dastur asosida ta’lim berish // “Kasb-hunar ta’limi”. – 2002. – №4. – B. 24.
10. Muqimov B.R. Kasb ta’limi jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning o‘rni va ahamiyati // “Kasb-hunar ta’limi”. – T., 2016. – №4. – B. 20–27.
11. Ismailova Z.K., Muqimov B.R. Amaliy ta’lim metodlari // “Kasb-hunar ta’limi”. – T., 2014. – №4. – B. 2–8.

12. Muqimov B.R. Talabalarni mustaqil ish jarayonida interfaol ta'lim metodlari asosida didaktik kompetensiyasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T., 2020. – 257 b.